














Nogironligi bor talabalarning o‘qish vaqtidagi imtiyozlari




Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen nogironligi bor talabalarning o‘qish paytidagi imtiyozlari haqida bilib olasan.
	Talaba – bu universitetda o‘qiydigan inson.
	Nogironligi bor talabalarga: ● stipendiya to‘lash ● yotoqxona bilan ta’minlash ● va boshqa qulayliklar yaratilgan
	Nogironligi bor talabalarning stipendiyalariga 50 foiz stipendiya qo‘shib beriladi.





	Barcha uchun stipendiya 517 880 (besh yuz o‘n yetti ming sakkiz yuz sakson) so‘m bo‘lsa, nogironligi bor talabaning stipendiyasi 776 820 (yetti yuz yetmish olti ming sakkiz yuz yigirma) so‘m bo‘ladi.
	Sening stipendiyangga 50 foiz pul qo‘shilishi uchun: • nogironlik hujjatingni va universitet hisobchisi nomiga ariza berishing kerak.
	50 foizli qo‘shimcha stipendiya faqat birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bor talabalarga beriladi.
	Vazirlar Mahkamasining nizomiga ko‘ra: • shartnomada o‘qiydigan birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bor talabalarga stipendiyalar davlat hisobidan beriladi.

	Birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bor talabaning o‘zlashtirishi 3 bahodan past bo‘lmasa 50 foizli qo‘shimcha stipendiya beriladi.
	Nogironligi bor talaba: ● fanlardan o‘zlashtirishi 3 bahodan past bo‘lsa ● yakuniy nazorat ishlaridan o‘ta olmasa ● ikkinchi semestrga qolib ketsa **stipendiya** ham, **qo‘shimcha stipendiya** ham **berilmaydi.**
	Davlat grantida o‘qiydigan talabaning fanlarni o‘zlashtirishi 3 bahodan past bo‘lsa, keyingi semestrdan stipendiya berilmaydi
	Ikkinchi mutaxassislikda o‘qiyotgan nogironligi bor talaba ham qo‘shimcha stipendiya olishi mumkin.

	Masalan: ● Sen Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetini bitirgansan. ● Ishga kira olmaganing uchun ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha Toshkent davlat pedagogika universitetiga o‘qishga kirding. ● Bu holatda senga shartnomada o‘qisang ham qo‘shimcha stipendiya beriladi.
	Har bir universitetda talabalarga rag‘batlantirish pullari berish bo‘yicha **“talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi”** tashkil etilgan.
	**“talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi”** pullaridan foydalanish va talabalarni qo‘llab-quvvatlash tartibini **universitet kengashi** tasdiqlaydi.
	Talaba davlat granti yoki shartnomada o‘qisa ham jamg‘arma hisobidan rag‘batlantirish beriladi.

	To‘lov-shartnoma asosida o‘qiydigan va fanlardan yakuniy imtihonlardan “5” baho olgan talabalarning stipendiyasiga 20 foizli qo‘shimcha stipendiya beriladi.
	Masalan: ● Sen Jahon tillar universitetida ikkinchi mutaxassislik shartnomada o‘qiysan. ● Sen semestrni hamma fanlarini 5 bahoga tugatding. ● Sening stipendiyangga 20 foiz qo‘shimcha pul qo‘shib beriladi.
	Jamg‘arma 50 foizlik qo‘shimcha stipendiya ham berishi mumkin.
	50 foizlik stipendiyani olish uchun sen: ● jamiyat uchun foyda keltiradigan qurilmalar, ● ilovalarni ishlab chiqqan bo‘lishing ● Ya’ni, “Kitobplus” ilovasi ● yoki “O‘zbekcha nutq sintezatori” kabi loyihalar qilgan bo‘lishing kerak.

	Jamg‘arma hisobidan beriladigan qo‘shimcha stipendiya faqat bir marta beriladi.
	Jamg‘arma hisobidan beriladigan **qo‘shimcha stipendiya** senga beriladigan 776 (yetti yuz yetmish olti) ming stipendiyadan tashqari beriladigan pul hisoblanadi.
	Qo‘shimcha stipendiya olish uchun sen **“Talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi”** rahbariga ariza bilan murojaat qilishing kerak.
	Nogironligi bor talabalarni **yashash joyi** bilan ta’minlanishda ham imtiyoz bor.
	Seni yotoqxonaga joylashish va yotoqxona to‘lovlarida imtiyozlaring bor.

	Hozirda barcha uchun yotoqxona talabalar to‘lovi – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m.
	Birinchi guruh nogironligi bor talabalar yotoqxona uchun to‘lov to‘lamaydilar.
	Ikkinchi guruh nogironligi bor talabalar yotoqxona uchun 50 foiz to‘lov to‘lashadi.
	To‘lovning 50 foizi hozirda 125 (bir yuz yigirma besh ming) so‘m.